

ÒZBEK RAQS SAN'ATI ASOSCHILARI

**Valijonova Sug'diyona Nodirbek qizi**

*ÒzDSMIFMF "Xoreografiya jamoalar rahbari" yònalishi 2-bosqich talabasi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek milliy raqs san'ati rivojiga ulkan hissan qo'shgan va o'zining erishgan yutuqlari, boy ijodiy merosi bilan o'zbek raqs san'atini dunyoga tanitgan, bir qator yorqin iste'dod egalari, shu jumladan: Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva hamda Isoxor Oqilovlarning ijodiy faoliyatlari va erishgan yutuqlari to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, san'at, milliy raqs, mahorat, ijro, o'zbek, ijodiy, merosiy raqs.*

**Аннотация:** *В данной статье представлен ряд ярких талантов, внесших большой вклад в развитие узбекского национального танцевального искусства и представивших миру узбекское танцевальное искусство своими достижениями и богатым творческим наследием, в том числе: Творческая деятельность и достижения Уста Олима Речь пойдет о Комилове, Тамарахониме, Мукарраме Тургунбоевой и Исохоре Акилове.*

**Ключевые слова:** *Уста Olim Komilov, Тамарахоним, Мукаррама Тургунбаева, Исохор Акилов, искусство, национальный танец, мастерство, исполнительство, узбекский, творческий, наследственный танец.*

**Abstract:** *This article presents a number of bright talents who made a great contribution to the development of the Uzbek national dance art and presented the Uzbek dance art to the world with their achievements and rich creative heritage, including: Creative activity and achievements of Usta Olim We will talk about Komilov, Tamarahonim, Mukarram Turgunboeva and Isokhor Akilov.*

**Key words:** *Usta Olim Komilov, Tamarahonim, Mukarrama Turgunbaeva, Isokhor Akilov, art, national dance, skill, performance, Uzbek, creative, hereditary dance.*

O'zbek milliy raqs san'ati an'analari o'zining qadimiy va boy tarixiga ega. U yillar davomida rivojlanib, muayyan bosqich va muvaffaqiyatlardan o'tib kelmoqda. Albatta, o'zbek milliy raqs san'atining bunday tez va salmoqli rivojida Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova va boshqa ko'plab raqs ustalarining san'at yo'lidagi ijodiy mehnat-u mashaqqatlari, yaratgan darslik va qo'lyozmalari, ular yetishtirgan raqqos va raqqosalarning barqaror ijodiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zining takrorlanmas iste'dodi, san'at yo'lidagi fidokorona mehnatlari, beqiyos izlanishlari bilan raqs san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan inson - usta Olim Komilov ijodiy faoliyati, o'zbek milliy raqs san'ati rivojida muhim tarixiy ahamiyatga ega.

San'atga bo'lgan katta qiziqish va havaslari tufayli bolalik chog'laridayoq ustozlari Majid aka va Mirsaid otalardan doira, chang va dutor chalish sirlarini o'rgana boshlaydi. Doira sirlarini puxta o'zlashtirib, Marg'ilonda doirachi sifatida tanila boshlar ekan, xalq uni "Usta Olim" deb ataydi. Yillar davomida san'atdagi tajribasi ortib borgan Usta Olim Komilov keyinchalik o'zi yaratgan doira usullariga raqslar sahnalashtira boshladi. U 1926- yilda Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligida tashkil etilgan folklor etnografik truppaga qabul qilinadi va shu yillardan boshlab "Sharqning birinchi qaldirg'ochi", qo'shiqchi, drama artisti, betakror raqqosa — Tamaraxonim bilan ijodiy hamkorlik yillari boshlanadi. Birgalikdagi faoliyatlari davomida ular, 120 ta usuldan tashkil topgan oyoq- qo'l harakatlari darsligini yaratdilar, "Katta o'yin", "Gul o'yin", "Pilla", "Sadr", "Zang" kabi qadimiy raqslarni sahnalashtirib, ularning ba'zilarini raqqosalar dastasi ijrosiga moslashtirdilar. O'zbek milliy raqs san'atining gultoji bo'lgan — "Munojot", "Dilxiroj", "Qari navo" kabi raqslar ham ularning izlanishlari natijasida yangicha talqin topdi. Ular nafaqat mamlakatimizda, balki Moskva, Sank-Peterburg, Baku, Volga bo'yi shaharlarida va jahonning ko'plab mashhur mamlakatlarida bo'lib, o'zbek milliy raqs san'atini dunyoga tanitishda ulkan hissa qo'shdilar. 1930- yilda Moskvada o'tkazilgan san'at olimpiadasida ishtirok etishdi va ijro etgan laparlari bilan tomoshabinlarni lol qoldirdilar. 1935-yilda esa Londonda bo'lib o'tgan xalqaro raqslar festivalida ishtirok etib, dunyoning turli burchaklaridan 2 mingdan ortiq raqs ustalari ishtirok etgan Londondagi jahon xalqlari festivalida ham qatnashdilar va oltin medalga sazovor bo'ldilar. Angliyada Usta Olim Komilovning mahoratini ko'rgan Buyuk Britaniya qirolichasi Mariya Lojalon unga "birgina doira sozi bilan butun orkestrga teng usul va ohanglar yarata olgan mo'jizakor - virtuoz san'atkor!" — deb ta'rif beradi. Uning panjalarini esa gipsga nusxa olib, London muzeyiga qo'yishga farmon beradi. Bu panda nusxasi hozirgi kungacha London muzeyida saqlanmoqda. Moskvada bo'lib o'tgan I o'zbek san'ati dekadasida ham Usta Olim Komilov sahnalashtirgan "Farhod va Shirin", "Gulsara" kabi raqslarni Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyevalar ijro etdilar va tomoshabinlarning etirofiga sazovor bo'ldilar. Ularning yuksak mahorat bilan ijro etgan "Paxta" va "Pilla" raqslari ham xalqimizning bebaho ma'naviy mulkiga aylangan.

Mukarrama Turg'unboyevaning yorqin va takrorlanmas iste'dodi o'zbek milliy raqs san'ati rivojida muhim ahamiyatga ega. U Usta Olim Komilov hamda Tamaraxonim bilan hamkorlikda sahnalashtirgan - "Zang", "Buxorocho", "Eroncha", "Iroq Ufori", "Layli va Majnun" kabi ommaviy raqslarida, "Katta o'yin", "Duchava" "Sadr", "Usmoniya", "Ufori Soxta", "Qarinavo", "Dilxiroj" kabi yakka raqslarni mahorat bilan ijro etgan. Ustozi Usta Olim Komilov bilan birgalikda "Doira darsi va raqs" qo'llanmasini yaratdi. 1933- 1957- yillarda esa o'zi ham birqator raqslarni sahnalashtirdi va ijro etdi. Bular: "Uyg'urcha", "Munojot", "Tanovor", "Nog'ora", "Abdurahmonbegi", "Terimchi qiz", "Andijon polkasi", "Rohat", "Gulruh", "Raqqosa", "G'ayratli qiz", "Pomircha", "Sho'x qiz" kabi yakka raqslar va "Tinchlik uchun", "Ulug' kanal", "Shodiyona", "Paxta", "Muhayyir", "Pilla", "Sharflar bilan raqs", "Tinchlik

kaptari" kabi raqslardir. 1957- yilda esa qizlar raqs ansamblini tashkil qildi va unga "Bahor" deb nom berdi. Mukarramaxonim Turg'unboyeva umrining oxiriga qadar shu ansamblida badiiy rahbar bo'lib xizmat qiladi. Shu yillar davomida u 600 ga yaqin milliy va jahon xalqlari raqslarini sahnalashtirdi. Pokiston, Singapur, Eron, Hindiston, Malayziya, Xitoy, Vengriya, Avstriya, Germaniya, Afg'oniston, Mangoliya, Italiya, Tailand, Albaniya, Kambodja, Sudan, Tunis, Polsha, Misr, Jazoir, Marokash, Liviya, Chexoslavakiya, Bolgariya, Findlandiya, Shvetsiya, Angola, Laos, Malta kabi shaharlarda gastrol safarida bo'ldi va milliy raqs san'atini dunyoga namiyish etdi.

O'zbek milliy raqs san'atining yana bir bilimdoni, mohir ijrochi va baletmeyster – Isoxor Oqilov zamonaviy o'zbek raqs san'ati yaratuvchisi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. U o'zining yuksak qalb harorati, kuch-g'ayrati, boy tajribasi va bebaho is'tedodini o'zbek raqs san'atining gullab - yashnashi yo'liga bag'ishladi. Isoxor Oqilovni ko'plab raqs san'ati shaydolari e'zozlaydi, hurmat qiladi, baletmeysterlik qobilyatiga tahsinlar o'qiydi! Uning navqiron bolalik yillarida ijro etgan takrorlanmas raqslari o'zining tabiiyligi, milliyliги va chuqur falsafiy mazmunga egaligi bilan yuksak baholanadi.

Tengsiz iste'dod sohibi – 1914-yilda Samarqand shahrida tavallud topgan. Undan so'ng shu yerdagi 7 yillik maktabni tamomlab, turli xil yarim professional truppalarga qatnasha boshlaydi. 1932- yilda ustozi Isroil Tolmasovning uyida ko'rgan buxorolik raqqosaning ijrosidagi "Charxi duzo nu" raqsiga qiziqib qoladi va tinimsiz mashqlar evaziga bu murakkab raqsni o'zlashtirib oladi. "Chilligi", "Ko'histoncha", "Lagan o'yini", "Daromadi doyra", "Qilich o'yini", "Xorazmcha", armancha "Shalaxo", gruzincha "Lezginka" kabi ko'plab raqslarni ham katta ishtiyoq bilan o'rgandi va ijro etdi. Isoxor Oqilov faoliyatini ijrochi sifatida boshlangan bo'lsa-da, uning xalq raqslarini yaratuvchisi va mahoratli baletmeyster bo'lishi aniq edi. Uning birinchi ustozlari usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonimlar edi. Isoxor Oqilov ustozlaridan olgan bilim va ko'nikmalari asosida ijro etgan bir-biriga o'xshash bo'lmagan raqslar o'zining tabiiyligi, milliyliги, jozibardorligi hamda chuqur falsafiy mazmundorligi bilan tomoshabinlarni uzoq yillar mobaynida maftun etib keldi. 1930-yilda Moskva xalqlar Teatr san'atining Butunittifoq olimpiadasida Isoxor Oqilov ustozlari Mixail Mullaqandov va Gavriel Mullaqandovlar jo'rligida "Buxoro yor-yorini" ijro etdi. 1939-yilda esa Butunittifoq estrada orkestrlari konkursida ishtirok etdi va milliy raqslardagi mohirona ijrosi uchun ashulachi K.Shuljenko va so'z ustasi Arkadiy Raykinlar qatorida shu konkurs mukofoti bilan taqdirlanadi. 1959-yilda 160 ta ijrochiga mo'ljallangan "Buxoracha katta bayram" syuitasini sahnalashtirdi. Bunda asosan "Uzzol", "Kam-kamak", "Mavrigi", "Aspanjayiman", "Buxoro to'lqini", "Maxvashi nozik badan", "La'li labat" kabi qo'shiqlarga raqslar sahnalashtirdi. Isoxor Oqilov raqslarni sahnalashtirganda asosan folklor musiqalaridan va professional kompozitorlar ijodidan foydalangan. "Shodlik" raqsini Buxoro shashmaqomining Rok usuli bilan boshlaydi, undan so'ng qadimgi o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Hay-yor-yor" qo'shig'i kuyiga o'tadi, Sayfi Yo'ldashevning "Baxt kuyi", "Go'zal qizlar", "Orom" kuylari

ham bir qancha raqslar yaratilishida manba bo'ldi. "Erkin zamon" raqsida esa to'rtta uyg'urcha usuldan foydalandi, "Shodlik" raqsining 1960-yildagi variantini Buxoro mavrigisi kuylari – "Mahma Hasanjon", "Aspanjayiman" singarilar asosida raqslar sahnalashtirgan. Uning shunday boy ijodiy meroslari o'zbek raqs san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shdi va yosh avlodning qalbida san'atga bo'lgan muhabbatning uygonishida katta ahamiyat kasb etdi.

Isoxor Oqilov sahnalashtirgan raqslar borgan sari yangidan - yangi uslublar bilan boyidi va hamisha tomoshabinlarning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'ldi. Isoxor Oqilov ko'p yillik samarali va fidoiy mehnatlari davomida O'zbekiston, Tojikiston va boshqa qardosh respublikalar raqs san'ati sohasida faoliyat olib borayotgan ko'plab san'atkorlarga ta'lim berdi. Bular: M.Zohidova, G.Izmaylova, B.Qoriyeva, G.Mamayeva, K.Yusupova, Q.Mirkarimova, H.Komilova, D.Jabbarova, V.Oqilova, R.Nizomova, T.Yunusova va Q.Do'stmuhammedovalardir.

Shunday qilib 19 - 20 asrlar mobaynida erishilgan shu kabi bir qancha yutuqlar va buyuk raqs ustalarining fidokorona mehnatlari negizida o'zbek milliy raqs san'ati barqaror rivoj topdi va hali hanuz dunyoga nom taratmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova "Xareografiya va Raqs san'ati asoslari". Toshkent - 2015.
- 2.N.E. Abraykulova "Raqs". Toshkent "Turon-Istiqbol" 2018.
3. M.Muxamedova "Jahon va O'zbek xareografiya san'ati tarixi". Toshkent - 2021. "Fan ziyosi" nashriyoti 143- 147-154 betlar
- 4.Jalilova Sh.Sh. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti". Toshkent- 2020, Navròz nashriyoti
- 5.O.Muhamedova. "O'zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti" darslik. —T; "Navròz nashriyoti", 2020.